

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019. K/T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**OYDINOV MUXLIS XOLIQLU O'G'LI**

**BOYITILGAN AKF-78 MARKALI ANGREN KAOLINIDAN  
FOYDALANIB, SINTETIK NaA SEOLITINI OLIH VA ULARNING  
ADSORBSION XUSUSIYATLARI**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Oydinov Muxlis Xoliqul o'g'li**

Boyitilgan AKF-78 markali Angren kaolinidan foydalanib, sintetik NaA zeolitini olish va ularning adsorbsion xususiyatlari ..... 3

**Ойдинов Мухлис Холиқул ўғли**

Получение синтетических цеолитов Na-A с использованием обогащенного Ангреноского каолина марки АКФ-78 и их адсорбционные свойства ..... 21

**Oydinov Mukhlis Xoliqul o'g'li**

Preparation of synthetic NaA zeolite using enriched AKF-78 grade Angren kaolin and their adsorption properties ..... 39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019. K/T.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**OYDINOV MUXLIS XOLIQLU O'G'LI**

**BOYITILGAN AKF-78 MARKALI ANGREN KAOLINIDAN  
FOYDALANIB, SINTETIK NaA SEOLITINI OLIH VA ULARNING  
ADSORBSION XUSUSIYATLARI**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K800 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi [www.ionx.uz](http://www.ionx.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduraxmonov Eldor Baratovich**  
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashev Oybek Karimovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Xandamov Davron Abduqodirovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «3» oktyabr soat 10<sup>00</sup> da o'tadigan majlisida bo'ladi (Manzil: 100170, Toshkent, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-A. Tel.: (99871) 262-56-60, faks: (99871) 262-79-90, e-mail: [ionx@academy.uz](mailto:ionx@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo instituti instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (16 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-A. Tel.: (99871) 262-56-60, faks: (99871) 262-79-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «18» sentyabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil «18» sentyabrdagi № 16- raqamli reestr bayonnomasi)



**B.S. Zakirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

**D.S. Salixanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

**I.D. Eshmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zaruriyati.** Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida yuqori sorbsion xususiyatlarga ega adsorbentlardan texnologik maqsadlar yo'lida foydalanish keng miqyosda joriy etilgan bo'lib, neftni qayta ishlashda katalizator sifati va uglevodorodlarni ajratishda, tabiiy gazlarni chuqur quritishda keng miqyosda ishlatiladi. Hozirgi paytda seolitlarni bentonit, kaolin, nefilin kabi xomashyolar asosida sintezi qilib olish borasida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yoqilg'ilar sifatini oshirishda sintetik seolitlardan foydalanish ekologik muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shu sababli sintetik seolitlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Neft-gaz sanoati mahsulotlarini qo'shimchalardan tozalashda, katalitik jarayonlarda qo'llaniladigan import seolitlar o'rnini bosuvchi mahalliy xomashyolar asosida olinadigan mikrog'ovakli adsorbentlar olish ilmiy va amaliy muammolarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda tarkibida kremniy va alyuminiy oksidlari tutgan xomashyolar asosida seolitlarni sintez qilish, neftni qayta ishlashda katalizatorlar, tabiiy gazlarni quritish texnologiyasini yaratish sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda, seolitlar sintez vaqtini optimallashtirish hamda iqtisodiy tarafdin qulay usullarni ishlab chiqish; seolit olishda kerak bo'ladigan xomashyolarning nisbatlarini aniqlash; sintezlangan seolitlarda qutbli va qutbsiz molekulalar adsorbsiyasini o'rganish, adsorbent-adsorbat ta'sirlashish mexanizmini tatqiq qilish; adsorbsiya izotermalarini aniqlashda mikrog'ovaklar hajmiy to'yinish nazariyasi (MHTN) tenglamalari yordamida g'ovaklar hajmini tavsiflash; seolitlarning sorbsion-struktura xossalari aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda neft-gaz kimyosi sanoatini rivojlanishi natijasida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar turlari va hajmining kengayishi kuzatilmoqda. Natijada neft-gaz sanoati korxonalarida gazlarni quritish, tozalash hamda texnik oqova suvlarni tozalash jarayoni uchun seolitlar sintez qilish va ularning adsorbsion xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida «Neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali tabiiy gaz ta'minotida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan holda bozor mexanizmlarini joriy etish» 1 vazifasi belgilangan. Bu borada mamlakatimizda ularni neft-gaz sanoatida qo'shimchalardan tozalashda yuqori effektiv adsorbsion xususiyatga ega adsorbentlarni sintez qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805 «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

o'shiring chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2022 yil 30 oktyabrdagi PQ-388-son «Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida» qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyodagi ilmiy-texnologik adabiyotlarda yuqori adsorbsion xususiyatga ega seolitlarni kaolin asosida olish bo'yicha B Bananezhad, M R Islami, E Ghonchepour, D. Boukadir, N. Bettahar, V. Yu. Prokof'ev, N. E. Gordina, C. A Rios, C. D. Williams, M. J. Maple, M. Xu, M. Cheng, X. Bao, X. Liu, D. Tang va boshqa ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Yurtimizda k.f.d., professor G.U. Raxmatkariyev rahbarligi ostida ilmiy maktabga asos solingan bo'lib, ushbu maktab vakillari bo'lgan Ergashev O.K., Raxmatkariyeva F.G., Baxronov X.N., Abduraxmonov E.B., Jumayeva D.J., Yakubov Y.Yu., Abdulxayev T.D., Koxxarov M.X., Doliyev G'.A. va boshqa olimlar tomonidan A, X, Y va ZSM-5 tipidagi seolitlarni, gil minerallarni, muskovit, silikagel, rutil va boshqa adsorbentlarni YuVAK qurilmasi (yuqori vakuumli adsorbsion kalorimetrik) yordamida namunalarda boradigan adsorbsiyaning izotermasi, entropiyasi, differensial issiqligi va termokinetikasi o'rganilgan.

Mazkur yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, seolitlarni sintez qilish va ulardagi adsorbsiya xususiyatlarini o'rganish borasida ko'plab taniqli chet el olimlari hamda o'zbek olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Shuni takidlab o'tish lozimki, ayni paytgacha tabiiy kaolin asosida seolit sintez qilish jarayonida vaqt va energiya sarfini kamaytirish, optimal sintez usullarini yaratish hamda mazkur seolitlarning fizik-kimyoviy, adsorbsion xususiyatlarini o'rganish borasida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-F-7-010 raqamli «Nanostrukturali fojazit tipidagi seolitlar panjarasi yuzasida ion-molekulyar klasterlarni energetikasi, tuzilishi va joylashishi» (2017-2020 yy.) va «Alyuminiy va kremniy oksidlari bo'lgan import adsorbentlari o'rnini bosish, adsorbsiya nazariy asoslarini rivojlantirish maqsadida asosi kaolin bo'lgan adsorbent mikrog'ovaklari va yuzalarida suv bug'i, metil va etil spirtlari va boshqa birikmalarni sorbsiya energetikasini tadqiq etish» va «Qator sorbentlarni import o'rnini bosish va adsorbsiya nazariy asoslarini rivojlantirish maqsadida seolit, ko'mir adsorbentlari yuzasida sulfidlar va boshqa birikmalarni

sorbsiya energetikasini tadqiq etish» (2022 y.) mavzusidagi fundamental loyihalari va byudjet dasturini bajarish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida NaA seoliti olish va uning adsorbsion xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.**

AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida gidrotermal usul orqali adsorbentlar olish usulini taklif etish;

Kremniy va alyuminiy oksidlarini tarkibida saqlagan mahalliy xom ashyolardan sintetik seolitlar olishning maqbul sharoitlarini aniqlash;

Sintez qilingan seolitlarning tuzilishini rentgenfazaviy analiz, IQ-spektroskopda o'rganish;

Olingan hom ashyolarga suv molekulalarining adsorbsiya izotermalarini aniqlash;

Adsorbsiya izotermalarini o'rganish va sorbsion-struktura xususiyati hamda g'ovaklar hajmini mikrog'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasi tenglamalari yordamida tavsiflash;

AKF-78 markali Angren kaolinidan sintezlangan adsorbentlarda suv va karbonat angidridi (CO<sub>2</sub>) bug'lari adsorbsiyasini, adsorbent-adsorbat ta'sirlashish mexanizmlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obekti** sifatida AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida olingan sintetik seolit – NaA adsorbenti, suv va karbonat angidridi (CO<sub>2</sub>) molekulalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** mahalliy xomashyo (kaolin) asosida import o'rnini bosuvchi seolitlarni sintez qilish usullari, seolitni neft-gaz sanoat mahsulotlarini tozalash jarayonlaridagi ishtiroki hamda ularning kolloid-kimyoviy, adsorbsion xossalari (adsorbent-adsorbat ta'sirlashish mexanizmi) tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida fizik (IQ-spektroskopiya, rentgenofazaviy analiz) va kolloid-kimyoviy kalorimetriya, yuqori vakuumli kalorimetrik qurilmasi va boshqa) tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Boyitilgan AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> dan foydalanib, sintetik mikrog'ovakli seolit olish usuli yaratilgan;

650°C da qizdirilgan AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning 2,2:1 nisbatdagi aralashmasini NaOH eritmasi bilan gidrotermal ishlov berish orqali sintetik mikrog'ovakli NaA seoliti olingan;

Olingan seolitning kristall o'lchami  $D=1.79 \cdot 10^{-10}$  m dan  $4.9 \cdot 10^{-8}$  m gacha, dislokatsiya zichligi  $\delta=10^{14}$  m<sup>-2</sup> dan  $10^{17}$  m<sup>-2</sup> gacha, panjaralararo deformatsiya  $\varepsilon=0,019$  dan 0.24 gacha qiymatlari isbotlangan;

Termik ishlov berilgan AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> dan foydalanib olingan sintetik mikrog'ovakli NaA seolitning intensivlik

cho‘qqilari, Linde Na-A seolitning intensivlik cho‘qqilariga mos kelishi aniqlangan;

Sintetik mikrog‘ovakli NaA seolitlarga suv bug‘i adsorbsiyasining differensial issiqliklari to‘lqinsimon pog‘onali ko‘rinishda bo‘lib, boshlang‘ich to‘yinishlarda adsorbsiya differensial issiqliklari kondensatsiya issiqliklaridan 2-3 barobar yuqori bo‘lishi aniqlangan;

Olingan sintetik mikrog‘ovakli NaA seolitiga  $N_2$  adsorbsiyasi asosida uning maxsus sirt maydoni ( $S_{BET}=624,74m^2 \cdot g^{-1}$ ), o‘rtacha g‘ovak hajmi ( $D=14,24\text{\AA}$ ) qiymatlari aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi.**

mahalliy xomashyolardan mikrog‘ovakli adsorbentlar olish imkoniyati NaA seoliti bo‘shliqlarida suv va karbonat anhidrid ( $CO_2$ ) molekulari adsorbsiyalanish mexanizmining nazariy va amaliy tadqiqotlaridan aniqlangan natijalari asosida yaratilgan;

yuqori vakuumli adsorbsion qurilmada mikrokalorimetrik usul orqali adsorbsiyalanish mexanizmini aniqlashning qulay metodi ishlab chiqilgan;

“Farg‘ona NQZ” MCHJ zavodida neftdan olinadigan mahsulotlar (benzin, dizel yoqilg‘ilari) tarkibidan suv va karbonat anhidrid ( $CO_2$ ) molekularini adsorbsiya qilib ajratib olish imkoniyatlari asoslab berilgan;

“Farg‘ona NQZ” MCHJ zavodidan chiqadigan neft mahsulotlari tarkibidagi qo‘shimcha metil sulfid, etil sulfid, metilmerkaptan, etilmerkaptan kabi birikmalarni adsorbentlar yordamida samarali tozalash imkoniyati yaratilgan;

#### **Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.**

Sintezlangan namunalar ustidagi tadqiqot natijalari adsorbentlarni kolloid-kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalarini tatqiq etishda IQ-spektroskopik, rentgenofazaviy analiz, yuqori vakuumli adsorbsion kalorimetrik uskunalaridan foydalanilganligi, shuningdek ishlab chiqarish korxonalarida laboratoriya sinovidan muvaffaqiyatli o‘tganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan adsorbsion-kalorimetrik tadqiqot ishi fizik adsorbsiyaning nazariy rivojlanishi maqsadida shuningdek, sorbsion texnikada qurilma va jarayonlar bo‘yicha amaliy hisoblash uchun zarur bo‘lgan hamda o‘rganilgan tizimlarning asosiy termodinamik funksiyalarini aniqlash imkoniyatiga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adsorbentlar tomonidan bir necha molekularni adsorbsiyalashida ilk bosimidan toki to‘yinish bosimigacha bo‘lgan to‘liq jarayon mexanizmlarini va faol markazlar tarkibidagi kationlar bilan molekular hosil qilgan ion-molekular komplekslarini o‘rganilishi yangi seolitlar sinteziga va amaliy qo‘llay olishga hamda oliy o‘quv yurti magistrantlariga fizik va kolloid kimyo fanidan o‘tiladigan maxsus kurslarda o‘quv jarayoniga qo‘llashga xizmat qiladi.



### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Boyitilgan AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida seolit adsorbentlarini sintez qilish va ularning adsorbsion xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

NaA seoliti yordamida neft mahsulotlari tarkibidagi qo'shimcha suv va karbonat angidrid molekularidan tozalash usuli «Farg'ona NQIZ» MChJ ning «2024-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona NQIZ» MChJ ning 2023 yil 4 sentabrdagi 01-02/2004-son ma'lumotnomasi). Natijada neft mahsulotlari tarkibidagi qo'shimcha suv va karbonatli birikmalaridan tozalash imkonini beradi;

NaA seoliti yordamida neft mahsulotlari tarkibidagi qo'shimcha metil sulfid, etil sulfid, metilmerkaptan, etilmerkaptan kabi oltingugurtli birikmalardan tozalash usuli «Farg'ona NQIZ» MChJ amaliyotida tadbiiq qilingan («Farg'ona NQIZ» MChJ ning 2023 yil 4 sentabrdagi 01-02/2004-son ma'lumotnomasi). Natijada neft mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida oltingugurtli birikmalardan 1,2 barobargacha tozalash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasini dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etdi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari, ob'ekti va predmeti, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati keltirilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**LTA seolitlarining tuzilishi, olinishi va adsorbsion xususiyatlarini tahlil qilish**» deb nomlangan birinchi bobida, LTA tipidagi seolitlarning batafsil tuzilishi ya'ni ularning superbo'shliqlari va faol markazlaridagi kationlar soni va joylashishini, dunyo olimlarining turli xil

usullar bilan LTA seolitlarini sintez qilish usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari bu bobda LTA tipidagi seolitlarning o'ziga xos xususiyatlari, sanoatda qo'llanilishi va adsorbsion qobiliyatlari ifodalangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari, ularning tarkibi va fizik-kimyoviy tavsiflarini aniqlash usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida, IQ spektroskopiya usuli, Rentgenofazaviy analizi usuli, kalorimetrik usul haqida, shuningdek, yuqori vakuumli adsorbsion mikrokalorimetrik qurilmaning tahlili, afzalligi va unda o'tkazilgan tadqiqot ishlaridan olingan natijalarni formulalari asosida hisoblash bo'yicha batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ - $\text{Al}_2\text{O}_3$  asosida NaA seolitining sintezi va tuzilishining fizik-kimyoviy tatqiqi**» deb nomlangan uchinchi bobida seolitning olinishi, fizik-kimyoviy tahlili, sintez qilingan seolitning IQ spektr, rentgenofazaviy analizi natijalari keltirilgan.

Mazkur tadqiqot ishida alumino-silikat manbai sifatida Respublikada mavjud bo'lgan Angren kaolini tanlangan. Xom ashyoning kimyoviy tarkibi quyidagicha (1-jadval):

1- jadval

#### Angren kaolinining kimyoviy tarkibi

Modda	$\text{Al}_2\text{O}_3$	CaO	$\text{Fe}_3\text{O}_4$	$\text{K}_2\text{O}$	MgO	$\text{Na}_2\text{O}$	$\text{P}_2\text{O}_5$	$\text{SiO}_2$	TiO	Boshqa moddalar
%	31.2	1.24	0.8	0.283	0.723	4.69	0.07	48.9	0.45	11.674

Kaolin tarkibidan sintez jarayoniga xalaqit beradigan birikmalarni tozalash bosqichi birinchi navbatda o'tkazildi. Asosan temir birikmalari olib tashlanishini hisobga olgan holda organik kislota ( $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$ ) tanlab olindi. Ushbu jarayonda maydalangan namuna  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  ning 0.5 M eritmasi bilan  $100^\circ\text{C}$  da ishlov beriladi (2- jadval). Undan keyin xona haroratiga qadar sovutilib filtrlanadi va namuna yana  $100^\circ\text{C}$  da quritiladi.


2- jadval

#### Tozalangan kaolin tarkibi


Modda	$\text{Al}_2\text{O}_3$	$\text{Na}_2\text{O}$	$\text{SiO}_2$	$\text{Fe}_3\text{O}_4$	Boshqa moddalar
%	37.4	5.5	55.6	0.1	1.4

Seolitlar sintezida  $\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_5(\text{OH})_4$  tarkibli kaolin guruhi minerali qo'llaniladi. Ushbu mineralni faollashtirish va reaktivligini oshirish maqsadida kaolin  $500\text{-}800^\circ\text{C}$  oralig'ida qizdirish orqali metakaolinga aylantiriladi. Hosil bo'lgan amorf metakaolin ishqoriy metall gidroksidlarining tegishli konsentratsiyadagi eritmalari bilan qayta ishlanadi. Ushbu jarayon ko'p hollarda  $100^\circ\text{C}$  gacha bo'lgan haroratda amalga oshadi. Hosil bo'ladigan seolitlarning mikroporalari hajmi reaksiya aralashmasining tarkibiga bog'liq. Agar sintez jarayonida kalsinlanmagan kaolin ishlatilsa, NaOH eritmasi bilan dala patoidi

yoki gidrosodalitga aylanadi. Metakaolin NaOH eritmasi bilan ishlov berilganda quyidagi reaksiya sxemasi bo'yicha A tipidagi seolitlar hosil bo'ladi.




Kaolin tabiiy alyuminosilikat bo'lib, unda kremniy va alyuminiy oksidi 1,0-1,15 molyar nisbatga ega. Kaolinning kristallari TO qatlamlardan iborat bo'lib, har bir TO qatlam kislorod, alyuminiy va gidroksil ionlaridan tashkil topgan oktaedral (O) qatlam va unga bog'langan kremniy va kislorod ionlaridan tashkil topgan tetraedral (T) qatlamlar yig'indisidan iborat. Mazkur tadqiqot ishida mahalliy kaolindan NaA sintetik seoliti sintez qilindi (1-rasm)



1-rasm Sintetik NaA seolitining olish sxemasi

Oksalat kislotasi eritmasi bilan ishlov berilgan kaolin 650°C haroratda 4 soat davomida qizdirilganda termik suvsizlanish jarayoni amalga oshib metakaolonga aylanadi.



2-rasm. Sintezlangan NaA va Linde NaA seolitlarining FTIR o'tkazuvchanlik spektrlari

Olingan metakaolin/ $\gamma\text{-Al}_2\text{O}_3$  aralashmasi 2.2/1 nisbatda olinib 2M NaOH eritmasi bilan (Stable Temp Cole Palmer) magnit aralashtirgichda 50°C haroratda 24 soat aralashtirildi. Tayyorlab olingan aralashma teflon qoplamali 100 ml hajmli avtoklavga joylashtirilib, 100 °C haroratda 16 soat davomida saqlandi. Namuna tarkibidan ortiqcha NaOHni olib tashlash uchun distillangan

suv bilan bir necha marta yuvildi (pH-7) va pechda 60 °C da 12 soat davomida quritildi. Keyin esa 800°C da 6 soat kalsinlandi.


Sintez qilingan namunaning (Bruker ALPHA II FT-IR) spektrometri yordamida infraqizil nurlarni yutuvchanligi, o'tkazuvchanligi tekshirib korildi. (2 -rasm) Sintezlangan NaA seolitining namunasi FTIR spektri 1001,15  $\text{sm}^{-1}$  da yuqori intensivlik bilan keskin cho'qqilarni ko'rsatadi. Bu yuqori intensiv kuchli tebranish assimetrik Si-O-Si cho'zuvchi tebranishiga to'g'ri keladi. O'tkir tarmoqli 466,86  $\text{sm}^{-1}$  dagi tebranishlar Si-O yoki Al-O tebranishiga yaqin hisoblanadi. Simmetrik Si-O-Si tebranishi esa 719,40  $\text{sm}^{-1}$  da qayd etilgan bo'lib, tarmoqli Si-O-Si bog'lanishining assimetrik tebranishi bilan solishtirganda kamroq intensivlikka ega ekanligi kuzatishimiz mumkin. Bu holat Si-O-Si bog'lanishining nosimmetrik tebranish ehtimoli, assimetrik tebranishning cho'zilish va egilishi bilan solishtirganda kamroq ekanligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yana bir o'tkir chiziq 566,09  $\text{sm}^{-1}$  da paydo bo'lgan bo'lib, bu LTA tipidagi seolit strukturasi ikkilamchi qurilish birligi bo'lgan qo'shaloq 4 halqaning ( $D_4R$ ) mavjudligi bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu strukturaga sezgir chiziqning intensivligi amorf massaning sezilarli darajada o'zgarishini ko'rsatib, tayyorlangan gelning kristalli NaA tipidagi seolit materialiga massa jihatidan katta miqdordagi aylanish sodir bo'lganligini ko'rsatadi.

Sintez qilingan namuna spektrlari Linde firmasining NaA seoliti spektrlari bilan solishtirib ko'rildi. Linde NaA seoliti ham (Bruker ALPHA II FT-IR) spektrometri bilan infraqizil nurlarni o'tkazuvchanligi tekshirib ko'rilgan.

Bundan tashqari, sintezlangan NaA seolit namunasi seolitning gidratatsiya suviga xos bo'lgan ikkita IQ diapazonini borligini ham ko'rishimiz mumkin. Seolitlarda suv molekullari kationlar bilan bog'langan bo'lib, vodorod atomi ma'lum darajada ramkaning kislorod ionlari bilan bog'langan bo'ladi. Suv molekullarining seolitning kationi yoki ramkadagi kislorod ionlari bilan bog'lanishi strukturaning ochiq tuzilishiga bog'liq. 3444,0  $\text{sm}^{-1}$  da kuzatilgan keng tarmoqli tebranish ramkaning kislorod ionlari bilan bog'langan (OH) vodorodiga xos ekanligi ko'rsatadi. Shuningdek, olingan spektrometrlarning 1640,87  $\text{sm}^{-1}$  tebranish rejimida suv molekullari xarakteristikasiga ega bo'lgan intensiv chiziq ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. NaA seolitining o'tkir va chuqur tebranish rejimi gidratsiya suvi NaA seolitning gidrofillik xususiyati va gidratsiya suvining yuqori foizini ko'rsatadi.

Ushbu tatqiqot ishida Angren kaolini asosida gidrotermal sintez qilingan NaA seoliti va Linde NaA seoliti namunasi (SHIMADZU XRD-6100) kristallari rentgen difraktometri yordamida o'rganildi. Rentgen difraktometrida olingan ma'lumotlar natijasida turli rentgen difraksiya cho'qqilari qayd etildi (3-rasm). Linde NaA seoliti kristallaridagi cho'qqilarni butunjahon kristall tuzilishdagi moddalar bazasi bilan solishtirilganda  $\text{Na}_{12}(\text{AlO}_2)_{12}(\text{SiO}_2)_{12} \cdot 27\text{H}_2\text{O}$  tarkibga ega bo'lgan formulaga to'la mosligi aniqlandi. Shuningdek Linde NaA seoliti O-54.8%, Si-15.4%, Al-14.8%, Na-12.6%, H-2.5% elementar tarkibdan iborat

ekanligi aniqlangan. Linde NaA seolitining kristallanish va amorflik darajalari ham aniqlandi. Bunda Linde NaA seolitida kristallanish darajasi-43.91%, amorflik darajasi esa -56.09% qiymatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.



**3-rasm. Sintez qilingan NaA va Linde NaA seoliti kristallarining XRD tasviri**

Sintetik NaA seoliti kristallaridagi cho'qqilarni tahlildan O-54.8%, Si-15.4%, Al-14.8%, Na-12.6%, H-2.5% elementar tarkibdan iboratligi aniqlangan. Shuningdek, sintetik NaA seoliti kristall cho'qqilarini tahlilida sintetik seolitning kristallanish va amorflik darajalari aniqlangan. Sintetik NaA seolitida kristallanish darajasi-34.42%, amorflik darajasi -65.58% qiymatlarga ega ekanligi aniqlangan.


Namunalarning kristall hajmi o'lchami Sherrer tenglamasi bilan rentgen nurlari difraksiyasi ma'lumotlari asosida aniqlandi (1- tenglama).

$$D = \frac{0.9\lambda}{\beta \cos \theta} \quad (1)$$

Bu yerda 0,9 kristallit shakliga bog'liq doimiy,  $\theta$ - cho'qqilar markazidagi burchak,  $\lambda$ -0,15406(nm) rentgen to'lqin uzunligi, cho'qqi kengligi,  $\beta$ - diffraksiya cho'qqisining yarim maksimal (FWHM) dagi to'liq kengligi, D- kristallarning o'lchami hisoblab chiqilgan.


FWHM yoki  $\beta_{hkl}$  (to'liq eni maksimal yarmida) mos ravishda cho'qqini aniqlashning matematik usulidir. Ushbu usul tahlil qilinayotgan spektrni yaratgan massa spektrometrining ruxsatini hisoblash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan "cho'qqilar" ni yaratish uchun ishlatiladi.  $\beta_{hkl} = \beta_t + \beta_a$   $\beta_t$  – kristallning tashqi o'lchamidan olingan chiziq kengligi (2-tenglama),  $\beta_a$ - atomlararo panjara tarangligi tufayli chiziqning kengayishi (3-tenglama).

$$\beta_t = \frac{k\lambda}{D \cos \theta} \quad (2) \quad \beta_a = 4\epsilon \tan \theta \quad (3)$$



4-rasm Linde NaA va sintez qilingan NaA seoliti kristallarining o'lchami

Ushbu chiziqni kengaytirish kristal o'lchamini va panjara kuchlanishini o'lchash uchun ishlatilishi mumkin. Linde NaA seoliti kristallarining o'lchami (D)  $2.92 \cdot 10^{-10}$  m dan  $4.8 \cdot 10^{-8}$  m gacha bo'lganligi aniqlandi. Sintez qilingan NaA seoliti kristallarining o'lchami (D)  $1.79 \cdot 10^{-10}$  m dan  $4.9 \cdot 10^{-8}$  m gacha bo'lganligi aniqlangan (4-rasm).



5-rasm. Namunalar dislokatsiya zichligi


Linde NaA va sintez qilingan NaA seolitlari kristallari turli o'lchamlarga ega bo'lib, kristall panjara deformatsiyasi kristall panjara buzilishidan kelib chiqadi, bu esa panjara dislokatsiyasiga olib keladi. Dislokatsiya zichligi (4-tenglama) yordamida aniqlanadi:

$$\delta = \frac{1}{D^2} \quad (4)$$

Linde NaA kristallari yuzasida dislokatsiya zichligi  $10^{14}$  dan  $10^{15}$  gacha ekanligi aniqlandi. sintez qilingan NaA seolitlari dislokatsiya zichligi  $10^{14}$  dan  $10^{17}$  gacha ekanligi aniqlandi (5-rasm).

Dissertatsiyaning «**Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida sintez qilingan NaA seolitining adsorbsion xususiyatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida noyob yuqori vakuumli kalorimetrik qurilmada sintetik NaA seolitiga suv va CO<sub>2</sub> bug'i adsorbsiyasining adsorbsion o'lchov ishlari amalga oshirildi, bu adsorbsion o'lchovlarni yuqori aniqlik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

**NaA seolitda suv molekulari adsorbsiya izotermasi va differensial issiqligi.** 6-(a) rasmda 303 K haroratda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida suv molekularini adsorbsiya miqdori ( $a$ ) differensial issiqlik ( $Q_d$ ) ifodalandi. Uzuq chiziqlar-303K harorat ostida ( $\lambda^{30}=43.5$  kJ/mol) suvni kondensatsiyalanish issiqligi. NaA (2) seolitiga dastlabki adsorbsiyalangan suv molekulari differensial issiqligi  $\sim 115,60$  kJ/mol, Linde NaA (1) seoliti uchun  $107,8$  kJ/molga teng bo'ladi. Bunda NaA (2) seoliti adsorbsiya  $a=0,04$  mmol/ga teng bo'ladi. Adsorbsiya differentsal issiqligi tajriba o'tkazish jarayonida kam miqdorda suv molekulari adsorbentga yuborilganligi sababli, mikrog'ovaklarga teng taqsimlanadi. Shu sababli, adsorbsiya differensial issiqligi asta sekinlik bilan tartibli pasayib boradi. Adsorbsiya differensial issiqligi grafigi kuchsiz to'liqinmon ko'rinishda boradi. Adsorbsiya 3 mmol/g gacha differensial issiqlik o'zgarishi bilan boradi, ya'ni kamayadi, buni bo'shliqlardagi  $\text{Na}^+$  kationlarning migratsiyalanib, superbo'shliqlarga o'tishi bilan tavsiflanadi.



**6-rasm. 303K haroratda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitida suv adsorbsiyasi differensial issiqligi ( $a$ ), NaA seolitida suv adsorbsiyasi izotermasi (b)  $\Delta$ -eksperiment qiymat;  $\blacktriangle$ -MHTN tenglamasi orqali hisoblangan qiymatlar**


Adsorbsiya miqdori 3 mmol/g ga yetguncha uchta bosqichga bo'lib o'rganish mumkin. Har bir bosqich 1 mmol/g suv molekulari adsorbsiyasida kuzatiladi. Bunda adsorbsiya differensial issiqliklari 100 kJ/mol, 88,60 kJ/mol va 68 kJ/mol ga teng bo'ladi. Adsorbsiya 3 mmol/gdan 14 mmol/g oraliqlarda adsorbsiya issiqligi kichik maksimumga chiqishi kuzatiladi. Bu oraliqlarda adsorbsiya differensial issiqligi qiymatlari davomiyligi qisman saqlanib qoladi. Adsorbsiya davomiyligi 69 kJ/molga teng bo'ladi. 14 mmol/gdan keyingi suv molekularida adsorbsiya issiqligining pasayishi kuzatiladi. NaA seolitining suv molekulariga to'yinishida adsorbsiya issiqligining kamayishi kuzatiladi.

To'yinish bosqichiga yetganda issiqlik kondensatsiya qiymatiga yaqinlashishi kuzatiladi. Adsorbsiya miqdori (7-b rasm) izoterma ( $\ln(p/p^0)$ ) da ifodalandi. 303 K haroratda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida suv adsorbsiyasi  $\sim 10^{-6}$  nisbiy bosimda  $p/p^0$  ( $p^0$  – suv bug‘i bosimi,  $p^0(303K) = 4.42$  kPa) suvni adsorbsiyalanish izotermasi grafiklari keltirilgan. Dastlabki to'yinishlarda adsorbsiya izotermasi Linde NaA (1) seoliti uchun sintetik NaA (2)  $\ln(p/p^0) = -12,24$  va  $\ln(p/p^0) = -10,16$  ga teng bo‘lib, bunda adsorbsiya miqdori 0,07 mmol/g ga teng bo‘ladi. Keyingi suv molekullari adsorbsiyalanishida adsorbsiya miqdori 1,75 mmol/g gacha adsorbsiya o‘qi tomoniga sekinlik bilan intiladi. Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida suvni adsorbsiyalanishi mikrog‘ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasini uch hadli tenglamalari orqali tavsiflash mumkin. MHTN bilan hisoblashlar 6 va 7-tenglamalar bilan ifodalangan.

$$a(\text{Linde}) = 2.1 \exp[A/29,37]^{10} + 12,08 \exp[A/16,31^5] + 2.9 \exp[A/4,78]^1 \quad (6)$$

$$a(\text{sintetik}) = 1.8 \exp[A/25,09]^{10} + 9,5 \exp[A/18,9]^{10} + 6.1 \exp[A/6,51]^1 \quad (7)$$

Bu erda:  $a$  – mikrog‘ovaklardagi adsorbsiya, ( $H_2O$ ),  $A = RT \ln(P^0/P) - 1$   $H_2O$  bug‘ni yuzadan ( $P^0$  bosim) muvozanatli gaz fazasiga olib o‘tish uchun bajarilgan ish ( $P$  bosim).




**7-rasm. 303K haroratda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitida suv adsorbsiyasi differensial entropiyasi (a), NaA seolitida suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti (b)**

7-(a) rasmda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida suv adsorbsiyasi differensial molli entropiyasi keltirilgan. Adsorbsiya differensial entropiyasi dastlab Linde NaA (1) seolitida  $-99.89$  J/mol\*K sintetik NaA (2) uchun  $-145.12$  J/mol\*K boshlanadi. Bu entropiya qiymati NaA (2) seoliti uchun adsorbsiya miqdori 0,07 mmol/gni tashkil qiladi. Entropiya qiymati  $-17,63$  J/mol\*K gacha kamayganda adsorbsiya miqdori 3 mmol/gni tashkil qiladi. Adsorbsiya 8 mmol/g gacha bo‘lgan qiymatda entropiya grafigi to‘lqinsimon ko‘rinishda boradi. Tadqiqot ishida olingan seolit namunasiga suv adsorbsiyaning o‘rtacha integral entropiyasi Linde NaA (1) seolitida  $-30,89$  J/mol\*K sintetik NaA (2) uchun  $-63,78$  J/mol\*K ni tashkil qiladi. 13 mmol/gdan



16,5 mmol/g oraliqlarida entropiya qiymatlarining o‘shishi kuzatiladi. Bunda esa adsorbsiyalangan suv molekulari standart holat entropiyasi tomon intilganligidan dalolat beradi.

7-(b) rasmda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti keltirilgan. Sintetik NaA (2) seolitiga suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti dastlab 14 soatni Linde NaA (1) seolitida esa 10 soatni tashkil etadi. Keyinchalik esa, adsorbsiya miqdori 2 mmol/g gacha bo‘lgan vaqtda issiqlik muvozanati 4 soatni tashkil qiladi. Adsorbsiya muvozanat vaqti dastlab adsorbat (suv) molekulari soni kamligi uchun adsorbent (seolit) tarkibidagi kationlarga taqsimlanishiga, ya’ni adsorbsiyalanishiga ko‘proq vaqt ketadi. Undan so‘ng asta sekinlik bilan muvozanat vaqti kamayib boradi. Suv molekularining adsorbsiya miqdori 8 mmol/g gacha bo‘lgan vaqtda issiqlik muvozanati vaqti deyarli o‘zgarmaydi. Ushbu bosqichda g‘ovak o‘lchamlari teng bo‘lgan bo‘shliqlardagi natriy kationlari bilan ion molekulyar komplekslar hosil bo‘lishi bilan izohlash mumkin.



8-rasm. 303K da Linde NaA(1) va sintetik NaA seolitida (2)CO<sub>2</sub> adsorbsiyasining differensial issiqliklari (a), izotermasi (b) Δ- eksperimental ma’lumotlar; ▲- MHTN vordamida hisoblangan)

8-(a) rasmda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlariga CO<sub>2</sub> molekularining 303 K da adsorbsiyalanishining differensial issiqliklari ( $Q_d$ ), uzoq-uzoq chiziqalarda ( $\lambda^{30}=27$  kJ/mol) kondensatsiyalanish issiqligi ko‘rsatilgan. NaA dastlabki karbonat angidrid molekulari adsorbsiyasi miqdori 0,06 mmol/g va  $Q_d \sim 87,7$  kJ/mol dan boshlanadi. Linde NaA (1) seolitida esa 83,7 kJ/molni tashkil qiladi. Dastlabki karbonat angidrid molekulari adsorbsiyasi uchun issiqlik maksimal darajada bo‘ladi. Keyingi adsorbsiyalangan karbonat angidrid molekulari 0,23 mmol/g da 61,60 kJ/mol gacha kamayadi. Hammasi bo‘lib sintetik NaA seolitiga 4,83 mmol/g ni tashkil qiladi. Adsorbsion issiqlik egri chizig‘ining bosqichli tabiati NaA seolitlari bo‘shliqlarining turli energetik bir jinsli markazlarida CO<sub>2</sub> molekularining


koordinativ to‘yinmagan Na<sup>+</sup> kationlari bilan stexiometrik o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

8-(b)rasmda 303 K da Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlarida CO<sub>2</sub>ni adsorbsiyalanishi mikrog‘ovaklarning hajmiy to‘yinish nazariyasini uch hadli tenglamalari orqali tavsiflash mumkin. MHTN bilan hisoblashlar 8 va 9 - tenglamalar bilan ifodalangan.

$$a(\text{Linde})=4,23\exp[(A/25,09)^4]+2,57\exp[(A/12,14)^3] \quad (8)$$

$$a(\text{sintetik})=4,06\exp[(A/25,74)^4]+2,3\exp[(A/11,79)^3] \quad (9)$$

bu yerda  $a$  - mikrog‘ovaklarda adsorbsiyalanayotgan CO<sub>2</sub> mmol/g, ya’ni  $A=RT\ln(P^\circ/P)-1$  mmol/g gazni sirdan (bosim P<sup>o</sup>) muvozanat gaz fazasiga olib o‘tish uchun bajarilgan ish (P bosim).



9-rasm. 303K haroratda Linde NaA va sintetik NaA seolitida suv adsorbsiyasi differensial entropiyasi (a), NaA seolitida suv adsorbsiyasi muvozanat vaqti (b)

9-(a) rasmda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlariga karbonat anhidridning molyar differensial molli adsorbsion entropiyasi ( $\Delta S_d$ ) ko‘rsatilgan. Standart karbonat anhidridning entropiyasi nolga teng deb hisoblanadi. Umuman olganda,  $\Delta S_d$  egri chizig‘i suyuq karbonat anhidrid entropiyasidan yuqorida joylashgan bo‘lib, egri chiziqning oxiridagi kichik qismdan tashqari. Adsorbsiya egri chizig‘ining differensial issiqliklarining shakliga ko‘ra, boshlang‘ich mintaqada NaA dagi karbonat anhidridning adsorbsiya entropiyasi -46,12 J/mol\*K, Linde NaA (1) seolitida esa -36,08 J/mol\*K ga oshadi, so‘ngra dastlabki ikki bo‘limda maksimal va minimaldan o‘tadi, uchinchi qismda esa deyarli chiziqli ravishda kamayadi. Adsorbsiya jarayoni tugagach, entropiya keskin pasayadi, nol chizig‘ini kesib o‘tadi va 62,76 J/mol\*K ga yetadi va ijobiy mintaqada ham keskin ortadi. NaA seolitida karbonat anhidrid adsorbsiyasining o‘rtacha molyar integral entropiyasi -26,35 J/mol\*K ni tashkil qiladi.

9-(b) rasmda Linde NaA (1) va sintetik NaA (2) seolitlariga uglerod (IV) oksidi molekulalarining adsorbsiyalanishi issiqlik muvozanat vaqti grafigi keltirilgan. Bunda dastlab issiqlik muvozanat vaqti yuqori bo‘ladi. Dastlab 4,6 soatda muvozanat qaror topadi. Adsorbsiya miqdori 0,25 mmol/g ga yetganda

muvozanat vaqti 3,4 soatni tashkil qiladi. 0,5 mmol/g ga yetguncha issiqlik muvozanat vaqti 3 soatgacha ko'tariladi. Bu har bir Na<sup>+</sup> kationlarida karbonat anhidrid bittadan molekullarining adsorbsiyalanishi qiyinroq kechishidan dalolat beradi. Adsorbsiya differensial issiqligining grafiki kabi, adsorbsiya issiqlik muvozanat vaqti grafigining sorbsion o'zgarishi bir biriga mos keladi. Jarayon oxirlashganda adsorbsiya issiqligi ikkila seolitda ham issiqlik muvozanat vaqti bir necha daqiqagacha kamayadi.

**Sintezlangan NaA seoliti molekulyar elaklarining BET tahlili.** Sirt maydoni seolit molekulyar elaklarining adsorbsion qobiliyatini baholash uchun muhim parametr hisoblanadi. Odatda, o'ziga xos sirt maydoni qanchalik katta bo'lsa, adsorbsiya qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi. BET ma'lumotlari va sintezlangan NaA, Linde NaA seolitlari molekulyar elaklarining N<sub>2</sub> adsorbsiya-desorbsiya izotermalari ko'rsatib o'tilgan. 3-jadvalda ko'rsatilganidek, sintezlangan NaA seolit molekulyar elakning sirt maydoni 624,74 m<sup>2</sup>/g ni tashkil etdi, bu Linde NaA seolitidan (658,96 m<sup>2</sup>/g) biroz darajada kichik qiymatga egaligi sintezlangan NaA seolit molekulyar elaklarining adsorbsion qobiliyatining sezilarli yaxshilanishini ko'rsatadi.

3-jadval

Namuna	Sirt yuzasi (m <sup>2</sup> /g) S <sub>BET</sub>	G'ovak hajmi (sm <sup>3</sup> /g)	O'rtacha g'ovak o'lchami (Å)
Sintetik NaA	624,74	0.1774	14,24
Linde NaA	658,96	0.1918	8,89

Sintezlangan NaA seolit molekulyar elakning N<sub>2</sub> adsorbsiya izotermasi NaA seolitidagi mikrog'ovak adsorbsion hodisalarni aks ettiruvchi Langmyur adsorbsion izotermasiga o'xshash I tipdagi izotermaga (IUPAC tasnifiga ko'ra) mos keladi. Shuningdek, Linde NaA seolitining N<sub>2</sub> adsorbsiya izotermasi makrog'ovak adsorbsiya hodisalarini ko'rsatuvchi I turdagi izotermaga (IUPAC tasnifiga ko'ra) mos kelishi aniqlandi.

## XULOSALAR

Dissertatsiya ishini bajarishda olingan asosiy ilmiy natijalar quyidagilar hisoblanadi:

1. AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma$ -Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> asosida gidrotermal usul orqali NaA seoliti olindi. Olingan seolitda IQ-spektroskopiya va rentgenfazaviy analizlari o'tkazilib, ular asosida seolitning kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi.

2. Yuqori vakuumli adsorbsion kalorimetrik qurilmada NaA seolitiga suv va karbonat anhidrid bug'i adsorbsiyasining izotermasi va adsorbsiya miqdori qiymatlari aniqlandi. Olingan qiymatlar asosida BET va Langmyur tenglamalari yordamida adsorbentning solishtirma sirt yuzalari, mikro va mezog'ovaklari, to'yinish hajmi aniqlandi.

3. Sintezlangan NaA seolitini to'yintirish uchun 16,71 mmol/g suv sarflandi. To'yintirishda avval differensial issiqlik qiymati yuqori bo'lib,

adsorbatni adsorbsiyalagan sayin pog'onali ko'rinishida pasayib bordi. O'rtacha integral differensial entropiya  $-63,78 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$  ga teng bo'lib, suv molekullari seolitga mustahkam qo'zg'almagan holatda adsorbsiyalanadi. Dastlabki to'yinishlarda adsorbsiya muvozanati qaror topishiga ko'p vaqt sarflanadi. Seolit suv bug'lari bilan to'yinib borgan sari adsorbsiya termokinetikasi bir necha daqiqada amaga oshadi.

4. AKF-78 markali Angren kaolini va  $\gamma\text{-Al}_2\text{O}_3$  dan olingan NaA seolitiga karbonat anhidrid bug'i adsorbsiyasida adsorbsiya miqdori  $0,06 \text{ mmol/g}$  bo'lganda adsorbsiya issiqligi  $87,7 \text{ kJ/mol}$ ni tashkil qiladi. Adsorbsiya differensial issiqligi to'liqinsimon pasayib, keyingi adsorbatlar adsorbsiyasi uchun  $0,23 \text{ mmol/g}$  dan  $0,8 \text{ mmol/g}$  gacha bo'lgan oraliqlarda boradi va birinchi pog'onani tashkil qiladi. Bu bosqichda adsorbsiya issiqligi  $5,2 \text{ kJ/mol}$  ga kamayadi. O'rtacha integral entropiya qiymati  $-26,35 \text{ J/mol}\cdot\text{K}$  ni tashkil etadi. Adsorbsiya muvozanat qaror topish vaqti dastlab  $4,6$  soatdan boshlanadi va NaA seolitini sirt yuzalariga adsorbsiyalanishiga qarab bir necha daqiqagacha kamayadi. Sintetik NaA seoliti jami  $4,83 \text{ mmol/g}$  karbonat anhidridni adsorbsiyalaydi.

5. BET ma'lumotlari asosida sintezlangan NaA, Linde NaA seolitlari molekulyar elaklarining  $\text{N}_2$  adsorbsiya-desorbsiya izotermalari solishtirib ko'rildi. Bunda sintezlangan NaA seolit molekulyar elakning sirt maydoni  $624,74 \text{ m}^2/\text{g}$  ni tashkil etdi, bu Linde NaA seolitidan ( $658,96 \text{ m}^2/\text{g}$ ) biroz darajada kichik qiymatga egaligi sintezlangan NaA seolit molekulyar elaklarining adsorbsion qobiliyatining sezilarli yaxshilanishini ko'rsatdi. Shuningdek, sintezlangan NaA seolit molekulyar elakning  $\text{N}_2$  adsorbsion izotermasi NaA seolitidagi mikrog'ovak adsorbsion hodisalarni aks ettiruvchi Langmyur adsorbsion izotermasiga o'xshash tipik I tipdagi izotermaga (IUPAC tasnifiga ko'ra) mos kelishi aniqlandi. Sintezlangan NaA seolitida g'ovak hajmi ( $0,1774 \text{ sm}^3/\text{g}$ ) Linde NaA  $0,1918 \text{ sm}^3/\text{g}$ , o'rtacha g'ovak o'lchami qiymatlari esa sintetik NaA ( $14,24 \text{ \AA}$ ), Linde NaA ( $8,89 \text{ \AA}$ ) ga teng ekanligi Quantachrome-Automated Gas Sorption qurilmasida aniqlangan.

6. Tarkibida kremniy va alyuminiy oksidi tutgan mahalliy xomashyolar asosida sintetik seolitlar sintez qilish va ishlab chiqarish sohalariga jalb qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy tabiiy xomashyolardan foydalanib mahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy davlatlardan import qilinadigan seolitlatga qaramlikni kamaytiradi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 02./30.12.2019.К/Т.35.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ  
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

---

**ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

**ОЙДИНОВ МУХЛИС ХОЛИКУЛОВИЧ**

**ПОЛУЧЕНИЕ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЦЕОЛИТОВ Na-A С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОБОГАЩЕННОГО АНГРЕНСКОГО  
КАОЛИНА МАРКИ АКФ-78 И ИХ АДсорбЦИОННЫЕ СВОЙСТВА**

**02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**Ташкент–2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.2.PhD/К800

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу [www.iopx.uz](http://www.iopx.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Научный руководитель:**

**Абдурахмонов Элдор Баратович**  
доктор химических наук, старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:**

**Эргашев Ойбек Каримович**  
доктор химических наук, профессор  
**Хандамов Даврон Абдукодиорович**  
доктор химических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится “3” октября 2024 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02./30.12.2019.К/Т.35.01 при Институте общей и неорганической химии (Адрес: 100170, Ташкент, Мирзо Улугбек, 77-а.тел.: (+99871) 262-56-60, факс: (+99871) 262-76-90, e-mail: [iopxanruz@nuu.uz](mailto:iopxanruz@nuu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии (Зарегистрировано № 16). Адрес: 100170, Ташкент, ул. Мирзо - Улугбека, 77-а.тел.: (+99871) 262-56-60, факс: (+99871) 262-76-90.

Автореферат диссертации разослан “18” сентября 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № 16 от “18” сентября 2024 года).



**Б.С. Закиров**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., проф.

**Д.С. Салиханова**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., проф.

**И.Д. Эшметов**  
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В сегодняшний день в технологических целях широко используются адсорбенты с высокими сорбционными свойствами, их широко применяют в качестве катализаторов при нефтепереработке и при разделении углеводородов, глубокой осушке природных газов. В настоящее время ведется много исследовательских работ по синтезу цеолитов на основе такого сырья, как бентонит, каолин, нефелин. Использование синтетических цеолитов для улучшения качества топлив позволяет поддерживать экологический баланс. Поэтому спрос на синтетические цеолиты увеличивается с каждым днем.

Во всем мире проводится множество научных исследований в области синтеза цеолитов на основе сырья, содержащего оксиды кремния и алюминия. При этом особое внимание уделено следующим задачам: оптимизацию времени синтеза цеолитов и разработке экономически удобных методов; определению пропорций сырья, необходимого для производства цеолита; изучению адсорбции полярных и неполярных молекул в синтезированных цеолитах, исследование механизма взаимодействия адсорбент-адсорбат; характеристику размера пор с использованием уравнений теории объемного насыщения микропор (ЕОНМ) при определении изотерм адсорбции; определению сорбционно-структурных свойств цеолитов.

Сегодня в результате развития нефтегазохимической промышленности в нашей стране наблюдается создание современных производств, а также расширение видов и размеров конкурентоспособной и качественной продукции. В результате достигаются научно-практические успехи в синтезе цеолитов и изучении их адсорбционных свойств для процессов осушки газов. В третьем направлении Новой Стратегии развития Узбекистана, направленной на дальнейшее развитие Республики Узбекистан, поставлена задача «Внедрение рыночных механизмов в сфере поставок природного газа с установлением гарантий социальной защиты путем ускорения трансформационных процессов в нефтегазовой сфере»<sup>1</sup>. В связи с этим сегодня приобретает все большее значение синтез адсорбентов с высокоэффективными адсорбционными свойствами для очистки от присадок в нефтегазовой промышленности нашей страны.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 21 августа 2020 г. № УП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в

---

<sup>1</sup>Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

